



**O'ZBEKISTON OLIY VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI**

Mustaqil ish №1

***Badiiy nutq
uslubi. O'zbek
she'riyati. Bir sher
tarixi.***

Bajardi: Ijtimoiy fanlar fakulteti

II kurs, IV semester

Amaliy psixologiya yonalishi talabasi

Tursunkulova Moxinur Shuhratovna

Qabul qildi: O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Topildiyeva F.R. va Abdusagatova F.H.

Badiiy nutq uslubi.

Badiiy uslub nutqning boshqa uslublaridan dastlab o'zining obrazlilik va estetik ta'sir etish vazifasi bilan ajralib turadi. Badiiy nutqda til leksikasining barcha qatlamlari ishtirok etadi. Chunki ilmiy va publitsistik uslublar ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasini ifodalasa, badiiy uslub inson faoliyatining turli qirralarini o'zida aks ettiradi, barchaga taalluqli bo'ladi.

Badiiy asar kishiga ma'lumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi: O'lkamizda fasllar kelinchagi bo'lmish bahor o'z sepini yoymoqda. Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so'zlari, sheva, vulgarizmlardan ham foydalaniladi. Shuning uchun badiiy uslub aralash uslub deb ham hisoblanadi, chunki bu uslubda so'zlashuv va kitobiy uslublarga xos o'rinlar ham uchraydi. Unda turli kasb-hunar, fan-texnika, xalqning maishiy hayotiga tegishli rang-barang so'zlar qo'llaniladi. Shu tufayli shoir va adiblar hammaga ma'lum til vositalaridan o'zigagina xos usulda foydalanishga harakat qiladilar. Shaxsiy obrazlilik publitsistik uslubga ham xosdir. Obrazlilik so'zlashuv uslubida ham bo'ladi.

Badiiy adabiyot tili adabiy til bilan birga umumxalq tili boyliklarini ham qamrab oladi.

Ya'ni asarning janr va mavzu talabi bilan yozuvchining individual uslubiga bog'liq holda badiiy nutqda umumxalq tilidagi barcha lug'aviy qatlamlar ishtirok etaveradi.

Masalan, adabiy tilda dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlar, dag'al so'zlar, eskirgan so'zlar, oddiy so'zlashuv tili elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmagani holda ularni badiiy nutqda o'rni bilan qo'llash mumkin.

Badiiy uslubning fonetik xususiyatlari. Badiiy uslubda yozuvchi yoki shoir erkin ijod qiladi. Shuning uchun u boshqa uslublardan, ayniqsa, so'zlashuv uslubidan keng foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir o'z qahramoni xarakterini yoritish maqsadida uning turli xil ko'rinishlaridan foydalanadi. Badiiy uslubda tovush almashinishi, tovush tushishi, tovush ortishi, unli tovushlarning cho'zilishi, undosh tovushlarning qavatlanishi shuningdek, alliteratsiya, assonans, kontaminatsiya va boshqa turli xil hodisalarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, tovush almashinishi va ortishi: O'rmonda otishdi, Qor edi qalin Yiqildi Hayqirib Yashash-shin Ishta-lin (M.Yusuf) YUqoridagi parchada s tovushining sh tovushiga almashinishi hamda so'z boshida i tovushining ortishi orqali duduq odamning nutqi ko'rsatib berilgan. Undosh tovushning ikkilantirilishi, geminatsiya hodisasi ham uchraydi

Badiiy nutq uslubida soʻz turkumlarini qoʻllashda ham oʻziga xosliklar mavjud. Masalan, sifatlarning ishlatilishi badiiy nutqda ot va olmosh kabi faoldir. Olmoshlardan kishilik va koʻrsatish olmoshlarining qoʻllanishi mahsuldir. Sonlar odatda aniq maʼnolarni anglatishi bilan birga maʼnosi kengaygan holda ham qoʻllanadi. Undov va taqlid soʻzlar ham badiiy uslubda uchrashi xarakterlidir.

Badiiy uslub sintaktik xususiyatlari bilan ham boshqa uslublardan farqlanadi. Shu sohada maxsus tadqiqot ishini olib borgan A.Abdullayev sintaktik vositalardan sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bogʻlovchilarning maxsus qoʻllanishi, antiteza, monolog, sukut, [inversiya](#), takroriy gaplar, ritorik soʻroq kabilarning matn taʼsirchanligini ifodalashga xizmat qilishini qayd etadi.

M.Yoʻldoshev esa oʻzbek tilida badiiy matnda aktuallashadigan sintaktik vositalarning quyidagi turlarini farqlashni tavsiya etadi: sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik soʻroq gap, inversiya, ellipsis (antiellipsis), parsellyatsiya, atov gaplar (segmentatsiya), gradatsiya, oksyumoron, (gʻayriodatiy birikmalar), antiteza (sintaktik konstruksiyalarda), [farqlash](#), oʻxshatish, sukut, ulab ketish, korreksiya.

Badiiy nutq uslubida darak, soʻroq, buyruq gaplar matn sintaksisining ajralmas qismini tashkil qiladi. Undov gaplar ham badiiy nutq uslubi uchun xarakterlidir. Ular kitobxonga estetik taʼsir oʻtkazishda yozuvchi qoʻlida kuchli qurol hisoblanadi.

Badiiy nutq uslubida qoʻshma gapning barcha turlari aralash ishlatiladi.



▶ *O'zbek she'riyati.*

Hech bir mubolag'asiz ta'kidlash joizki, bugun biz baquvvat o'zbek she'riyatiga egamiz. She'riyat Sharqda asrlar davomida adabiyotning asosiy turi sifatida yashagani boisi ham uning ildizlari bag'oyat teran.

Ammo bugungi o'zbek she'riyati kechagi she'riyat emas, balki o'zining ko'pgina, xususan, shakliy-mazmuniy mundarijasiga ko'ra yangilangan poeziyadir. Shu bilan birga, bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan uzilib qolgan alohida hodisa ham emas. Ular o'rtasida vorisiylik, uzviylik davom etib kelayotir. Zamonaviy o'zbek she'riyati mumtoz va yangi o'zbek she'riyatining eng yaxshi an'analarini davom ettirgani holda jahon adabiyoti buloqlaridan ham suv ichayapti. Adabiyot kecha dunyoga sots.realizm tuynugi orqali qaragan bo'lsa, bugun uning tafakkur ufqi juda keng. Ayni mana shu keng ufq — badiiy tafakkur erkinligi hozirgi zamon poeziyasini — Istiqlol davri o'zbek she'riyatini vujudga keltirayotgan bosh omildir. Shunga ko'ra, har tomonlama boy she'riyatimizga nazar tashlab, uning bag'rida barcha tamoyillarning izini ko'rish mumkin: realizm, neorealizm, romantizm, simvolizm va bir qator avangard adabiy oqimlarning hayotbaxsh yo'llarida yaratilayotgan bugungi o'zbek she'riyati shoir tafakkurining yagona mafkuraviy iskanjadan xoli ekanligidan, boshqacha aytganda, chinakam hurligidan dalolat. Yana, shoirning qaysi yo'nalishda qalam tebratishi emas (zotan, bugun toza bir yo'nalishning o'zi yo'q, ular o'z taraqqiyot yo'llarida bir-biriga ta'sir qilib, sinkretik manzara kasb etib borayotir), balki qanday iste'dod bilan yozayotganligi hamda azaliy muhoraba — zzzgulik va vovuzlik iangida qaysi tomonda turganligi tobora muhim bo'lib boravanti

Nazarimda, hozirgi o'zbek she'riyati ifoda usuliga ko'ra taxminan quyidagicha ko'rinishga ega: an'anaviy; xalqona (folklor an'analari doxil); modern; aruz; sinkretik. Ammo ta'kidlash joizki, dunyoni estetik-badiiy talqini bobida asosan ikkita kuchning musobaqasini kuzatish mumkin: bu — an'anaviy va modern oqimlari o'rtasidagi bellashuv. (Bunday musobaqa hamisha bo'lgan aslida va u yaqin tariximizda, masalan, “an'ana va novatorlik” deb atalgan). Nima bo'lganda ham, keyingi 20 — 25 yil mobaynida jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar zamonaviy o'zbek she'riyati qiyofasiga jiddiy ta'sir ko'rsatgani bor gap. Tashqaridan “keltirilgan” oqimlarning ta'siri esa allaqachon umrini yashab bo'ldi. Zotan, hayot — barcha yangilanishlar manbai, sarchashmasi! Hayotimizda kechayotgan azim o'zgarishlar tufayli nafaqat she'riyat, balki butun boshli adabiyotimiz mafkuraga xizmat qilishdan qutilib, o'zining azaliy o'zaniga tushib bormoqda. Natijada adabiyot g'oyani tarannum etishdan bosh ko'tarib, insonga yaqin keldi, uning dardini kuylay boshladi. Boshqacha aytganda, shoir ko'ngilni she'rga solishga kirishdi.



O'ZBEK SHE'RIYATI

Bularning hammasi yaxshi. Faqat kutilmaganda masalaning boshqa bir qirrasini yuz ko'rsatdi. Shoir haddan tashqari o'z olami bilan band bo'lib, atrofni, jamiyatni bir qadar "unutdi". Shoir uchun o'z sub'ektiv olamigina birlamchi haqiqatga aylandi. Bu esa she'riyat maydonining torayishiga olib kelgan jiddiy sabablardan biri. Boshqa yoqdan esa shaklga qattiq mehr bog'lagan shoir adabiyotni o'yinga aylantirish payiga tushdi.

"Haqiqiy adabiyot, chinakam she'r bu yuksak san'atdir", degan shior ostida ijod qiluvchilar soni bir muncha ortdi. Bunday tutim ham ma'lum ma'noda she'riyatning ziyoli-ijodkorlar, bo'lajak filolog-talabalar, mutaxassislar va muayyan qiziquvchilar doirasida ko'proq o'qilishiga olib kelmoqda. Tursun Ali, Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Aziz Said, Go'zal Begim kabi o'zbek shoirlari (dunyoqarashlari, iste'dodlari va uslublaridagi jiddiy farqlarga qaramay) qaysidir ma'noda shu umumiy yo'nalishning ko'zga ko'ringan vakillaridir.

Ayni paytda, o'zbek she'riyatida an'anaviy yo'nalish hali-hamon tashabbusni o'z qo'lida tutib kelayotganini ta'kidlash joiz. Chunki bu yo'nalish xalq ruhi bilan, uning qiziqish, o'y va dardlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shunga ko'ra, bu yo'nalish vakillarining ijod namunalari bir necha ming nusxada chop etilib, tez tarqalib ketadi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Muhammad Yusuf, Mahmud Toir, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Farida Afro'z bugun eng ko'p o'qilayotgan shoirlar. Matnazar Abdulhakim, Sa'dulla Hakim, Usmon Qo'chqor singari shoirlarning bitiklarida hayotiy tajribaning falsafiy mushohadakorlik bilan yo'g'rilishi natijasida vujudga kelgan poetik lavhalarga guvoh bo'layapmiz. Chorsham', Rustam Musurmon, Salim Ashur, Ikrom Iskandar, Qo'chqor Norqobilning keyingi yillar ijod namunalari o'zining pishiqchilik pallasiga kirganiga dalil. Halima Ahmedova, Rahimjon Rahmat, Zebo Mirzayeva, Xosiyat Rustamovanning yaratayotgan ramziy she'rlari esa yangilanayotgan badiiy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo'lmoqda. Poytaxt, Qoraqalpog'iston va viloyatlarda ijod qilayotgan Abdulla Sher, Kenesboy Karimov, Baxtiyor Genjamurod, Enaxon Siddiqova, Odil Hotamov, Shafoat Rahmatullayev, Ismoil To'xtamishev, Xosiyat Bobomurodova, Xurshida, Nabi Jaloliddin, Halim Karim, O'roz Haydar, Ismoil Mahmud Marg'iloniy, Bahodir Iso, Gavhar Ibodullayeva, Zamira Ro'ziyeva, Maqsuda Egamberdiyeva, Nosirjon Toshmatov, Jamoliddin Muslim, Jumagul Suvonova, Gulbahor Saidg'aniyeva, Dilfuza Komil, Muxtasar Tojimamatova, Shodmon Sulaymon, Laylo Sharipova, Shermurod Subhon, Munavvara Qurbonboyeva, Zuhra Ochilova kabi shoirlarning uzoq-yaqinlardan

Bir sher tarixi.

Bilurmisan, sevgan kishiga Sodiq bo‘lmoq o‘zi saodat ...

(bir she‘r tarixi)

Odatda ko‘pam muzeylarga boravermayman yaqinda bir tasodif tufayli X.Olimjon va Zulfiyaxonim muzeyini ziyorat qildim. Bilmadim bog‘dagi jimjitlikmi, nimadir meni shu muzeyga kirishga undadi...Kirdim...muzey ostonasidan kirishim bilan quloqlarim ostida Botir Zokirovning “Xayolimda bo‘lding uzdu kun,...” misralari bilan boshlanguchi taronasi yangray boshladi... negadir shu qo‘shiq chora atrofdan jarang sochayotgandek tuyuldi...ko‘nglimga qandaydir sokinlik bag‘ishlagan ajib hislarni uyg‘otgan muzey ostonasida baxt, muhabbat, hijron sevgi va vafo, sadoqat iforini tuydim ...

Xayolimda bo‘lding uzun kun

seni izlab qirg‘oqqa bordim .

Och to‘lqinlar pishqirgan tunda,

Topib ber deb oyga yolvordim...

Mayin va ko'ngilda ajib hislarni uyg'otguchu bu qo'shiq barcha zamonda ham o'lmas tarona bo'lib qolaveradi. Bu she'rning yozilish tarixi ham o'zgacha...dildan yozilgan dilga yetib boradi deyishgani rost H.Olimjonning qizlari Hulkar opaning hikoya qilishlaricha ularning ukalari Omon tug'ilish arafasida H.Olimjon Kavkaz safariga chiqadilar.Zulfiyaxonim og'iroyoq bo'lganliklari sababli safarda ularga hamrohlik qilaolmaydilar.Shoir safarda ekanliklarida Zulfiyaxonim tush ko'radilar,emishki shoir rafiqalariga xiyonat qiladilar.Bu tushdan ta'sirlangan shoira Zulfiyaxonim darrov Kavkazga maktub yozib yuboradilar. Maktublariga esa ushbu she'riy javob keladi...



*Xayolimda bo'lding uzun kun,
seni izlab qirg'oqqa bordim.
och to'lqinlar pishqirgan tunda,
Topib ber, deb oyga yolvordim.
Ishon, bunda seni doimo
Esga solar chiroyli tunlar,
Sho'x yulduzlar, salqin saharlar,
Esga solur baxtiyor kunlar.
Toleimning oshinosi sen,
Sen sevgimning ko'kargan bog'i,
Sening bilan birga iqbolim,
Ishonchimning sen vafo tog'i.
Meni qurshar salqin bir havo,
Suv ustidan tun quyuladi.
Shunda qancha-qancha gaplarni
Esga solib oy ham to'ladi,
Kecha jimjit, yolg'iz to'lqinlar
Pishqiradi bilmay tinimni.
Hivlagar oy, sohraar dilbar*



Muzeyni aylanar ekanman shior va uning oilasiga tegishli ashyolar va haligacha kishini hayajonga solguchi o'lmas bitiklarni o'qib ularda mana shunday buyuk qalb egalari sevgi, sadoqat , baxt, shodlik kuychilari H.Olimjon va Zulfiyaxonim siymolarini ko'rdimtasavvurim olislarga yetakladi...Tashqarida bahor epkini esmoqda ..bahor kirib kelmoqdaa ...hademay shoir madh etgan o'rik oppoq bo'lib gullaydi...uning go'zalligi ifori ko'ngilga qanchalik orom bag'ishlasa ikki go'zal qalbning sevgi dostoni va ularning ash'orlari bahorni sog'inib unga talpingan yuraklarda mangu yashaydi..

